

## **Individual dizayndagi kartalarning chiqarilishi shartlari**

Individual tasvirga qo‘yiladigan talablar:

- Fayl formati: JPEG
- Tasvirning o‘lchamlari: 300 dpi
- Faylning maksimal hajmi: 3 mb.

Kartalarda joylashtirish uchun quyidagilarni o‘z ichiga olgan tasvirlardan foydalanish taqiqlangan:

- siyosiy shiorlar va ramzlar;
- reklama materiallari (jumladan o‘z -o‘zini reklama qilish), tovarlar namunalari, tovar belgilari , shu jumladan qisqartmalar , akronimlar yoki istalgan turdagи ramzlar (Bankning kobrending dasturlaridan tashqari);
- mualliflar huquqi bilan himoyalangan materiallar;
- ommaviy shaxslar – taniqli musiqachilar, yozuvchilar, sportchilar, boshlovchilar va hokazolarning fotosuratlari yoki rasmlari;
- telefon raqamlari , e-mail manzillari;
- antisotsial taqiqlangan guruhlar, ozchilik guruhlarning tasviri;
- provokatsion va jinsiy xususiyatdagi materiallar;
- ma`daniy yoki diniy tuyg‘ularni haqoratlaydigan materiallar;
- kartalar orqali tovlamachilikka sabab bo‘la oladigan istalgan turdagи tasvirlar;
- turli, jumladan inson va fuqaroning jinsi, irqi, millati, kasbi,ijtimoiy toifasi, yoshi, tili xususidagi uyatsiz va haqoratlovchi obrazlar, o‘xshatishlar va iboralar;
- alkogolli va spirtli mahsulotlarning istalgan tasvirlari, shuningdek tetiklashtiruvchi ichimliklar, sigaretlar, sigaralar, trubkalar, (tamaki) chekish uchun istalgan anjomlar, qurol, qimor kartalari, anjomlari, ruletka o‘yin avtomatlari, totalizatorlar, qimor o‘yinlarining boshqa belgilari tasviri;
- bayroqlar, gerblar, ordenlar;
- medallar, tangalar, pul belgilari, markalar, kupyuralar, jumladan qadimiy va kam ishlatiladigan pullar;
- xalqaro to‘lov tizimi logotipini yoki "ASIA ALLIANCE BANK" ATB ning logotipini, shuningdek mijozning shaxsiy ma’lumotini o‘z ichiga olgan tasvirlar;
- "ASIA ALLIANCE BANK" ATB va/yoki xalqaro to‘lov tizimi tomonidan bank kartasida joylashtirish mumkin emas deb tan olingan boshqa tasvirlar.

Mijoz taqdim etilgan tasvirdan foydalanish va uni tasarruf etish, jumladan, uni Bankka kartada joylashtirish uchun taqdim etish huquqiga ega ekanligini, va tasvirdan bunday foydalanish uchinchi shaxslarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini, jumladan, xususiy aqliy mulk huquqini va boshqa mulkdorlar huquqlarini buzmasligini kafolatlaydi.

Kartada joylashtirilgan tasvir mualliflik huquqining ob’ekti bo‘lgan holda, Mijoz Bankka ushbu tasvirni Kartada joylashtirish bilan bog‘lik bo‘lgan zararlarni va xarajatlarni qoplap berish majburiyatini zimmasiga oladi. Kartadan foydalanish jarayonida Bankka ishlatilayotgan tasvir mualliflik huquqining ob’ekti ekanligi ma’lum bo‘lib qolsa, Bank ushbu Kartani bloklash huquqiga ega.

Mijozga tayyorlangan kartani topshirish mijozning hisobraqami ochilgan Bank filialida amalga oshiriladi. Karta olinganda o‘zining yonida Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni bo‘lishi

lozim. Agar Karta Mijozning ishonchli shaxsining nomiga ochiladigan bo‘lsa, ushbu ishonchli shaxsning o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjati bilan kelishi shart.

Bank qabul qilingan qarorning sabablarini tushuntirmagan holda Mijozga karta chiqarishni rad etish huquqiga ega. Individual dizayndagi kartalarning chiqarilishi uchun Bankning amaldagi Ta`riflariga muvofiq vositachilik haqi olinadi: <http://aab.uz/uz/services/tariffs/> Vositachilik haqi Bank filialida amalga oshirilishi mumkin.